

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI  
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH  
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMTA’LIM MAKTABLARINING  
5-9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN “JASORAT UCHQUNLARI”  
HARBIY-VATANPARVARLIK VA SPORT MUSOBAQASI  
TANLOVINING HUQUQIY SAVODXONLIK YO‘NALISHI BO‘YICHA  
TEST SINOVI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING  
5-9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN "JASORAT UCHQUNLARI"  
HARBIY-VATANPARVARLIK VA SPORT MUSOBAQASI  
TANLOVINING HUQUQIY SAVODXONLIK YO'NALISHI BO'YICHA  
TEST SINOVI SPETSIFIKATSIYASI**

Ushbu spetsifikatsiya umumta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilarining huquqiy savodxonligi bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

**I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – 5-9-sinf o'quvchilarining huquqiy savodxonligi bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o'quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 5-9-sinflar uchun o'tkaziladigan "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasida qabul qilinadigan qarorlar asosli (valid) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

**II. Me'yoriy asoslar**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi nizomi.

**III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt**

O'quvchilarining huquqiy savodxonligini aniqlash bo'yicha jami 10 ta topshiriq taqdim etiladi. Test sinovlari uchun **20 daqiqa** vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

#### IV. Baholanadigan mazmun soha, bilim, ko'nikma va kompetensiyalar

Mazmun soha	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Testlar soni
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya	Konstitutsiya qoidalarining mazmun-mohiyatini biladi. Konstitutsiyaviy normalarni aniqlab ularni muayyan vaziyatlarga moslashtiradi. Konstitutsiyaning bo'lim va boblariga doir normalarni huquqiy asoslar hamda mantiqiy dalillarga tayangan holda tanlaydi. Davlatda qonun ustuvorligi tamoyilining mazmuni va ahamiyatini huquqiy dalillar bilan asoslaydi. Konstitutsiyaviy huquq normalarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiladi.	4
O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari	Davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) huquqiy maqomi va ulardan foydalanish qoidalarini biladi. Ularning qabul qilinishi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniqlaydi. Turli vaziyatlarda davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga doir to'g'ri xatti-harakatni tanlaydi va baholaydi.	2
Fuqarolik burchi	Fuqarolik burchining mazmunini aniqlaydi. Kundalik hayotda mas'uliyatli fuqarolik xatti-harakatlarini tanlaydi va ularning ahamiyatini tushunadi. Muammoli vaziyatlarda eng maqbul fuqarolik qarorini aniqlaydi hamda uni huquqiy va axloqiy asoslar bilan baholaydi.	2
Yoshlar huquqlari	Yoshlarning asosiy huquq va erkinliklarini biladi. Turli vaziyatlarda yoshlar huquqlarining buzilishi yoki ta'minlanishini aniqlaydi. Yoshlar huquqlarini himoya qilishga doir to'g'ri xatti-harakatni tanlaydi va qarorini baholaydi.	1
Harbiy xizmat	Harbiy xizmatning mazmuni va fuqarolarning harbiy burchi haqidagi asosiy qoidalarni biladi. Harbiy xizmatga doir fuqarolik majburiyatlari	1

	va huquqlarini aniqlaydi hamda berilgan vaziyatda to'g'ri qarorni tanlaydi.	
<b>Jami</b>		<b>10</b>

## V. Kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

<b>Kognitiv daraja</b>	<b>Izohi</b>	<b>Testlar soni (ta)</b>
<b>Bilish (B)</b>	Bilish darajasidagi, ya'ni reproduktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'quv materialini qayta ishlamasdan xotirada saqlash va tanish vaziyatlarda qo'llashni talab qiladi. Bu turdagi topshiriqlar quyidagilarni baholaydi: qonuniyatlar, xossalar, tushunchalar, atamalarning mohiyati va ularni yodda saqlash.	<b>3</b>
<b>Qo'llash (Q)</b>	Qo'llash darajasidagi, ya'ni produktiv topshiriqlar, o'quvchidan o'rganilgan qonun va qonuniyatlarni berilgan vaziyatga mos ravishda tanlash, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llash va umumlashtirishni talab qiladi.	<b>6</b>
<b>Mulohaza qilish (M)</b>	Mulohaza darajasidagi, ya'ni intellektual topshiriqlar, o'quvchidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni ishlatib umumlashtirish va xulosa chiqarish talab qilinadi.	<b>1</b>

## VI. Baholash mezoni

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 1 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 10 balni tashkil etadi. Yo'nalishga oid 10 ta test savol (jamoaning qarori asosida bir nafar a'zosi ishtirok etadi) beriladi.

## VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i to'g'risidagi qonun Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi to'g'risidagi qonun Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi to'g'risidagi qonun Lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida qonuni Lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonuni Lex.uz.

7. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2024.

8. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2024.

**Izoh:** *Test topshiriqlari normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritilganda qonunning asl manbaiga murojaat qilinadi (O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz. sayti).*